

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref

Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 25.09.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 7,5 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 140.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
25.09.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 7,5. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 140.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонова – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgohk street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 25.09.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p.7,5. Unit: 100.

Order: 140.

Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**
Xalqaro xususiy huquqda majburiyat munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish
- 15 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Tibbiy tashxisda sun'iy intellekt va bemor huquqlarini himoya qilish munosabatlarining huquqiy arxitekturasini

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. XO'JALIK PROTSESSUAL HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtirokining protsessual jihatlari
- 31 **XURSANOV RUSTAM XOLMURATOVICH**
O'zbekiston Respublikasi fuqarolik huquqida subsidiar javobgarlik masalalari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**
Markaziy Osiyoda tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishning huquqiy masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 47 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Jinoiy ravishda homila tushirish jinoyati obyektiv tomonining ilmiy-nazariy jihatlari
- 55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**
Bojxona sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: ularni o'zaro farqlash masalalari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 **ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Совершенствование правового регулирования обязательственных отношений в международном частном праве

15 **КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА**

Правовая архитектура взаимосвязи искусственного интеллекта и защиты прав пациентов при медицинской диагностике

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ХОЗЯЙСТВЕННОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

22 **ПИРМАТОВ ОТАБЕК ШАВКАТОВИЧ**

Процессуальные аспекты участия адвокатов в гражданском судопроизводстве

31 **ХУРСАНОВ РУСТАМ ХОЛМУРАТОВИЧ**

Вопросы субсидиарной ответственности в гражданском праве Республики Узбекистан

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

39 **САДИКОВА ДИЛАФРУЗ РАДЖАБОВНА**

Правовые вопросы использования возобновляемых источников энергии в Центральной Азии

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

47 **ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ**

Научно-теоретические аспекты объективной стороны преступления аборта в уголовном процессе

55 **ЕРМАШЕВ ДЖЕНГИС МАРАТОВИЧ**

Квалификация преступлений в таможенной сфере: вопросы их взаимной дифференциации

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW.
INTERNATIONAL PRIVATE LAW

8 **IMAMOVA DILFUZA ISMAILOVNA**

Improving the legal regulation of obligation relations in international private law

15 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**

Legal architecture of the relationship between artificial intelligence and the protection of patients' rights in medical diagnostics

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW.
ARBITRATION AND MEDIATION.

22 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**

Procedural aspects of lawyers' participation in civil proceedings

31 **KHURSANOV RUSTAM KHOLMURATOVICH**

Issues of subsidiary liability in the civil law of the Republic of Uzbekistan

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

39 **SADIKOVA DILAFRUZ RADJABOVNA**

Legal issues of the use of renewable energy sources in Central Asia

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY.
CRIMINAL PROCEDURAL LAW

47 **KHAYDAROV SHUKHRATJON JUMAEVICH**

Scientific and theoretical aspects of the objective side of the crime of abortion in the criminal process

55 **ERMASHEV JENGIS MARATOVICH**

Qualification of crimes in the customs field: issues of their mutual differentiation

Kelib tushgan / Получено / Received: 26.08.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.09.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.09.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.3./UVX08655

UDC: 343.268.3(045)(575.1)

JINOIY RAVISHDA HOMILA TUSHIRISH JINOYATI OBYEKTIV TOMONINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Xaydarov Shuxratjon Djumayevich,

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi,

kriminologiya va korrupsiyaga

qarshi kurashish kafedrasi professor v.b.,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-8188-7410

e-mail: xaydarovshuxrat@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari hamda jinoyat obyektiv tomonining o'ziga xos xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, maqolada jinoiy ravishda homila tushirish jinoyatining obyektiv tomoni jinoyat huquqi mutaxassislari fikrlari asosida tahlil qilingan va muallif ushbu olimlar fikrlariga ilmiy yondashib, o'z qarashlarini ilmiy tahlil asosida yoritgan. Bundan tashqari, maqolada homilador ayollarning reproduktiv salomatligi va huquqlarini turli tajovuzlardan himoya qilish masalasi aks etgan 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1950-yilgi Tibbiy abortlar to'g'risidagi va 1993-yilgi Ayollarga nisbatan zo'rlikni tugatish to'g'risidagi deklaratsiyalar ham keltirib o'tilgan. Ushbu hujjatlarda davlatning ayollarga nisbatan zo'ravonlik harakatlarining oldini olish, tergov qilish, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va aybdorlarni jazolashga munosib darajada e'tibor qaratishi shartligi belgilab qo'yilganligi bayon qilingan. Maqolada jinoiy ravishda homila tushirish jinoyatining 2014–2022-yillardagi statistikasi tadqiqot ishi yuzasidan o'rganilgan hukmlar asosida tahlil qilib berilgan. Shuningdek, jinoiy ravishda homila tushirish bilan bog'liq jinoyat uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonunchilik normalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan xulosa va takliflar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, javobgarlik, abort, homila, sog'liq, jabrlanuvchi, shifokor, akusher-ginekolog, tibbiy muassasa, noqonuniy, qilmish.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ АБОРТА В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Хайдаров Шухратжон Джумаевич,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), и. о. профессора

кафедры «Уголовное право, криминология и борьба с коррупцией»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье излагаются понятие, специфика преступлений, связанных с прерыванием беременности (аборт), а также специфика объективной стороны преступления. Также в статье была проанализирована объективная сторона преступления по поводу аборта на основании мнений специалистов по уголовному праву, и автор осветил свои взгляды на основе научного анализа, применив научный подход к мнению этих учёных.

Кроме того, в статье также упоминаются Всеобщая декларация прав человека 1948 года, Декларация о медицинских абортах 1950 года и Декларация о прекращении насилия в отношении женщин 1993 года, в которых рассматривается вопрос о защите репродуктивного здоровья и прав беременных женщин от различных посягательств. В этих документах говорится, что государство должно уделять должное внимание предотвращению, расследованию, защите прав жертв и наказанию виновных в актах насилия в отношении женщин. В статье проанализирована статистика преступлений, связанных с абортами, за 2014–2022 годы, а также суждения, полученные в результате исследовательской работы. Также в статье даны научно обоснованные выводы и предложения по совершенствованию законодательных норм, предусматривающих ответственность за преступления, связанные с абортom.

Ключевые слова: преступление, ответственность, аборт, плод, здоровье, потерпевшая, врач, акушер-гинеколог, медицинское учреждение, незаконное, деяние.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF THE OBJECTIVE SIDE OF THE CRIME OF ABORTION IN THE CRIMINAL PROCESS

Khaydarov Shukhratjon Jumaevich,

Acting Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy in Law (PhD)

Abstract. This article describes the concept of the crime of criminal abortion, its characteristics, and the specifics of the objective side of the crime. Also, in the article, the objective side of the crime of criminal abortion is analyzed based on the opinions of experts in criminal law, and the author takes a scientific approach to the opinions of these scholars and explains his opinions on the basis of scientific analysis. In addition, the article also cites the 1948 Universal Declaration of Human Rights, the 1950 Declaration on Medical Abortion, and the 1993 Declaration on the Elimination of Violence against Women, which reflect the issue of protecting the reproductive health and rights of pregnant women from various encroachments. These documents state that the state must pay due attention to the prevention, investigation, protection of the rights of victims, and punishment of perpetrators of acts of violence against women. The article analyzes the statistics of the crime of criminal abortion in 2014–2022 based on the judgments studied in the research work. The article also provides scientifically sound conclusions and suggestions for improving the legal norms that provide for liability for crimes related to criminal abortion.

Keywords: crime, liability, abortion, fetus, health, victim, doctor, obstetrician-gynecologist, medical institution, illegal, act.

Kirish

Respublikamizda demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida davlat, jamiyat va fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun xavf tug'diruvchi jinoyatlarga qarshi kurashish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

JK Maxsus qismidagi "Shaxsga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan birinchi bo'limining III bobi "Hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar" deb nomlanib, ushbu bobda jami 7 ta

jinoyat (112–117-moddalar) qamrab olingan. Shulardan jinoiy ravishda homila tushirish (abort) uchun JKning 114-moddasida javobgarlik belgilangan.

Umuman olganda, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bir qator jinoyatlar uchun javobgarlik dunyo va O'zbekiston tarixida o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Jumladan, biz tahlil qiladigan homila tushirish (abort) masalasi jamiyatdagi, tibbiyot-

dagi eng qadimgi masalalardan biri hisoblanadi.

Xususan, Gippokrat qasamyodi ham homilani tushirishni taqiqlaydi (“Men ... hech qanday ayolni abortga mahkum etmayman”). O‘z navbatida Aristotel abortga yo‘l qo‘yish mumkin deb hisoblagan, u ushbu masalaning ikki jihatiga e‘tibor qaratgan: abort demografik maqsadlarni (tug‘ilishni tartibga solish) tartibga solish uchun zarur; abort faqatgina homilada “his etish” va “harakat faolligi” shakllangunga qadar amalga oshirilishi mumkin [1].

Qadimgi Rimda ham abortga nisbatan cheklov bo‘lmagan, faqatgina uning keyingi davrida Rim imperiyasining harbiylarga bo‘lgan ehtiyoji oshib ketgandan so‘ng abort taqiqlanib, jazolanishni boshlagan.

Rim huquqida dastlab homila inson tanasining bir qismi (“pars viscerum”) sifatida ko‘rilgan, shu bois ham homilani sun‘iy ravishda tushirgan ayollar jazoga tortilmagan. Keyinchalik esa homila (“*nasciturus*” – tug‘ilmoqchi bo‘lgan) muayyan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lgan.

Guvohi bo‘lganimizdek, Qadimgi Yunoniston va Rimda homila tushirish uchun shaxs ta‘qib qilinmagan va ushbu jarayon davlat tomonidan nazoratga olinmagan. Bu davrda faqatgina Peruda abort to‘liq taqiqlangan, uning uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan. VII asrda esa Konstantinopol cherkovida abort uchun o‘lim jazosi belgilangan. Katolik cherkovi abort qildirgan ayolni qotilga tenglashtirgan. XVII asrda homila tushirish uchun bir qator Yevropa mamlakatlarida ham o‘lim jazosi joriy qilingan.

Homila tushirishning yakuniy taqiqlanishi xristianlik dinining vujudga kelishi bilan bog‘liq. Xristianlikning dastlabki davridayoq abort og‘ir gunohga – insonni, o‘z qarindoshini o‘ldirishga tenglashtirilgan. Cherkov ta‘siri ostida XVI asrda deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida abort uchun dastlab o‘lim jazosi joriy etildi, keyinchalik katorga ishlari va turma qamog‘i bilan almashtirildi. Bunda

homilani tushirgani uchun nafaqat shifokor, balki bemor ham javobgarlikka tortilgan.

Material va metodlar

Tadqiqotda Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan “Jinoiy ravishda homila tushirish (abort)” masalalari bo‘yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari

“Islomda ham homila tushirish man etilgan, bunday tibbiy aralashuv Allohning irodasiga qarshi ketish, insoniylikka zid harakat sifatida baholanadi. Shu bilan birga, musulmon davlatlarida ham abort to‘liq taqiqlanmagan, bunda unga ruxsat beriladi, faqat umumiy taqiqlar bo‘ladi, masalan, homila 120 kundan oshgandan so‘ng abortga yo‘l qo‘yilmaydi va h.k.

Buddaviylikda ham inson hayoti onasining qornidayoq boshlanadi, deb ishoniladi va shu bois asosiy buddavliylikka e‘tiqod qiladigan mamlakatlar – Shri-Lanka va Tailandda abortlarga faqatgina homila ona hayotiga xavf solgandagina yo‘l qo‘yiladi”.

Darhaqiqat, homila tushirish (abort) ayolning reproduktiv sog‘lig‘i, tanlovi va huquqi bilan bog‘liq masala hisoblanadi. “Reproduktiv salomatlik nasl qoldirish va ushbu sohada mustaqil qaror qabul qilish huquqini nazarda tutuvchi shaxs sog‘lig‘ining muhim jihati hisoblanadi” [2].

Reproduktiv salomatlik insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida alohida muhofaza etiladi. Reproduktiv salomatlikka tajovuz qilish ikki tomonlama zarar yetkazadi, alohida shaxs sog‘lig‘iga zarar yetkazish bilan bir qatorda, mamlakatdagi demografik muhitga, ijtimoiy institutlar rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

“Reproduktiv salomatlik – jismoniy, aqliy va ijtimoiy barqaror holat bo‘lib, nafaqat nasl qoldirish qobiliyatini, balki unga shart-sharoit yaratuvchi omillarni ham qamrab oladi. Reproduktiv salomatlik tushunchasidan bir

guruh huquqlar kelib chiqadi: ushbu sohada axborot olish huquqi; sog'liqni muhofaza qilish sohasida tegishli xizmatlardan foydalanish huquqi va b.q." [3].

Reproduktiv huquqlar milliy va xalqaro hujjatlarda kafolatlangan. Xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning yashash (25-modda), sog'lig'ini saqlash huquqiga (48-modda) egaligi, onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi (78-modda) belgilangan.

Homilador ayollarning reproduktiv salomatligi va huquqlarini turli tajovuzlardan himoya qilish masalasi 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1950-yilgi Tibbiy abortlar to'g'risidagi deklaratsiya, 1993-yilgi Ayollarga nisbatan zo'rlikni tugatish to'g'risidagi deklaratsiyada o'z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda davlatning ayollarga nisbatan zo'ravonlik harakatlarining oldini olish, tergov qilish, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va aybdorlarni jazolashga munosib darajada e'tibor qaratishi shartligi belgilab qo'yilgan [4].

1994-yilgi Qohira konferensiyasida ham reproduktiv salomatlikni muhofaza qilishga "reproduktiv salomatlikni ushbu sohadagi muammolarning oldini olish va hal qilishga qaratilgan usul, texnologiya va xizmatlar majmui" sifatida ta'rif beriladi. Ularda reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lishi kerakligi hamda davlat miqyosida ularni yuridik ta'minlash majburiyati belgilanishi lozimligi nazarda tutilgan.

Ushbu sohani tahlil qilgan mutaxassislarining fikricha, har yili dunyoda 50 millionga yaqin abortlar amalga oshirilib, shundan uchdan bir qismi noqonuniy bo'ladi. Har ming kishiga abortlar soni [5]:

- Germaniyada – 5,1;
- Avstriyada – 7,7;
- Fransiyada – 13,87;
- Rossiya Federatsiyasida – 83 taga to'g'ri keladi.

Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonda har ming kishiga – 1,42 tani tashkil qiladi [5].

Ushbu jinoyat bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Xususan, jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyati:

- 2014-yilda – 9 ta (17 nafar shaxs);
- 2015-yilda – 20 ta (29 nafar shaxs);
- 2016-yilda – 10 ta (17 nafar shaxs);
- 2017-yilda – 11 ta (12 nafar shaxs);
- 2018-yilda – 11 ta (27 nafar shaxs);
- 2019-yilda – 6 ta (6 nafar shaxs);
- 2020-yilda – 3 ta (3 nafar shaxs);
- 2021-yilda – 1 ta (1 nafar shaxs);
- 2022-yilda – 3 ta (6 nafar shaxs) sodir etilgan.

Homila tushirish (abort) ayolning sog'lig'i uchun xavfli taomil bo'lib, malakali mutaxassis shifokorning qat'iy nazorati ostida va zarur shart-sharoitlarda bajarilishi lozim.

Boshqacha aytganda, homilador ayol o'zining sog'lig'iga ehtimoliy zarar yetkazishga ruxsat beradi hamda davlat xavf ehtimolini kamaytirish uchun bunday faoliyatni amalga oshirishga faqatgina mutaxassis – akusher-ginekolog shifokorga ruxsat beradi.

Shu bilan birga, davlat zarur malakaga ega bo'lmagan shaxslarga homila tushirish (abort) amaliyotini o'tkazishni taqiqlaydi.

Homila tushirish (abort) amaliyoti qonunchilikda taqiqlanmagan, faqat uni amalga oshirishda muayyan talablarga rioya etilishi talab etiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2020-yil 12-iyundagi 124-son buyrug'iga asosan tasdiqlagan "Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomning 2-bandiga muvofiq, homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish akusherlik-ginekologik muassasa tomonidan er va xotinning yozma roziligi bilan, er bo'lmagan taqdirda ayolning o'z roziligi yoki ota-onasining roziligi yoxud u voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda

boshqa qonuniy vakillarining homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatishni qo'llash bo'yicha ixtiyoriy rozilik arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Ayol homiladorligini sun'iy ravishda to'xtatish yashash manzili yoki doimiy yashash joyi yohud vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan akusherlik-ginekologik muassasasida amalga oshiriladi.

Tibbiy muassasadan tashqari joyda homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish, sun'iy ravishda homilani tushirish tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo'lgan hollarda ham jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish homiladorlikning muddati va homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish usuliga ko'ra ambulator yoki statsionar sharoitda o'tkaziladi.

Homiladorlikning o'n ikki haftagacha bo'lgan muddatida homiladorlikni sun'iy ravishda dori vositalari bilan to'xtatish birlamchi ambulator-poliklinikada, jarrohlik usuli bilan to'xtatish akusherlik-ginekologik muassasasi qoshidagi ambulator-poliklinikada ambulator sharoitda amalga oshiriladi.

Homilador ayolda yuqori xavfli yondosh kasalliklar yoki homilador ayolning hayotiga xavf soluvchi tibbiy ko'rsatmalar bo'lganda homiladorlikning o'n ikki haftagacha bo'lgan muddatida homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish qanday usulda bo'lishidan qat'i nazar, tibbiyot muassasasining ginekologiya bo'limida statsionar sharoitda amalga oshiriladi.

Homiladorlikning o'n ikki haftadan yigirma ikki haftagacha bo'lgan muddatida homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish qanday usulda bo'lishidan qat'i nazar, tibbiyot muassasasining ginekologiya bo'limida, homiladorlikning yigirma ikki haftadan keyingi muddatlarida homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish qanday usulda bo'lishidan qat'i nazar, tibbiyot muassasasining akusherlik bo'limida statsionar sharoitda amalga oshiriladi.

Homiladorlikni sun'iy ravishda to'xtatish-

ga ushbu holatlar mavjud bo'lsa, yo'l qo'yilmaydi:

a) og'ir yoki o'rtacha og'ir kechadigan so'zak, jinsiy a'zolarining yallig'lanish jaryonlari, joylashgan joyidan qat'i nazar, yiring o'choqlari, og'ir kechadigan yuqumli kasalliklar va boshqa shu singarilar mavjudligida;

b) homilaning 12 haftalikdan katta ekanligida;

v) avvalgi abortdan keyin 6 oy o'tmasdan abort qildirish, shuningdek, abortni amalga oshirishga doir yo'riqnomada nazarda tutilgan boshqa holatlarda tibbiy nuqtayi nazardan abort mumkin emas [7].

Qonunchilik tahlili homilani sun'iy ravishda tushirish (abort) quyidagi talablarga javob berishi lozimligini ko'rsatmoqda:

1) homila muddati bilan bog'liq talablar, ya'ni homilani sun'iy ravishda tushirish (abort) homila 12 haftalik bo'lguniga qadar amalga oshirilishi mumkin. Aynan ushbu davr oralig'ida homilador ayol onalik masalasini mustaqil hal qilishga haqli bo'ladi;

2) homilani sun'iy ravishda tushirish (abort) amaliyotini o'tkazish joyiga qo'yilgan talablar, ya'ni ushbu tibbiy amaliyot faqatgina tibbiy faoliyat, shu jumladan, akusherlik va ginekologiya ishi bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan tibbiyot tashkilotlarida amalga oshirilishi lozim;

3) homilani sun'iy ravishda tushirish (abort) amaliyotini o'tkazish subyektiga qo'yilgan talablar, ya'ni ushbu tibbiy amaliyot faqatgina tegishli ixtisoslik bo'yicha oliy tibbiy ma'lumotga ega shifokorlar tomonidan amalga oshirilishi zarur;

4) ayolning roziligiga qo'yilgan talablar, ya'ni homilador ayol homilani sun'iy ravishda tushirish (abort) amaliyoti va uning oqibatlari haqida xabardor qilingan holda uni o'tkazishga rozi bo'lishi lozim [8].

Guvohi bo'lganimizdek, homila tushirish (abort) qonuniy yoki noqonuniy bo'lishi, noqonuniy homila tushirish (abort) esa o'z navbatida jinoyat, ma'muriy yoki intizomiy qilmish belgilariga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, sun'iy homila tushirish (abort) huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan bu ishlarni amalga oshirishning qoida va talablariga rioya etmaslik homilador ayolning solig'iga shikast yetkazmasa, uning harakatlari intizomiy javobgarlik choralariга sabab bo'ladi.

“Noqonuniy homila tushirish (abort) homilador ayolning yoki uchinchi shaxslarning ongli harakatlari natijasi hisoblanadi. Homilador ayolning o'zi tomonidan sun'iy homila tushirish (abort) javobgarlikka sabab bo'lmaydi, chunki bu o'z sog'lig'iga zarar yetkazish sifatida baholanadi” [9].

Insonparvarlik nuqtayi nazaridan jinoiy ravishda abort qildirgan, shuningdek, homilani o'zi sun'iy tushurgan ayollar jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Aksincha, homilador ayol jinoiy ravishda homila tushirish (abort)da jabrlanuvchisi sifatida ko'riladi.

Shuni inobatga olish lozimki, jinoiy ravishda homila tushirish (abort) – zarar yetkazishga jabrlanuvchi roziligi talab qilinadigan kam sonli jinoiy tarkiblaridan biri. Shu munosabat bilan shaxsning unga tegishli bo'lgan nomoddiy huquqlardan voz kechishdagi mustaqilligi doirasi masalasiga aniqlik kiritish lozim.

“Boshqacha aytganda, ommaviy va xususiy manfaatlar to'qnashuvi ro'y beradi. Homilador ayol o'z sog'lig'iga tegishli malakaga ega bo'lmagan shaxs tomonidan zarar yetkazish ehtimoliga rozilik beradi, o'z navbatida, davlat bunday shaxslarga sun'iy homila tushirishga ruxsat bermaydi” [10].

Ushbu holatlarni inobatga olib, ayrim huquqshunos olimlar “ushbu jinoiyatni sodir etishda ayol o'z sog'lig'iga shikast yetkazishga rozi bo'lishini inobatga olib, uni dekriminalizatsiya qilish”ni [11] taklif etadilar.

Biroq ushbu fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki “homila tushirish (abort) jarayonida ayolning hayoti va sog'lig'i xavf ostida qoladi, unga zarur tibbiy yordam vaqtida ko'rsatilmagan taqdirda esa bunday xavf yanada kuchayadi” [12].

Shu bilan birga, “homila tushirish (abort) sun'iy yoki o'zboshimchalik bilan sodir etishi

mumkin. O'zboshimchalik bilan homila tushirish (abort) ayolning xohish-istagisiz va tashqi aralashuvsiz yoki tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha amalga oshiriladi” [13].

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlardan Ukraina, Moldova, Gruziya, Ozarbayjon va Turkiya davlatlari jinoiyat qonunlarida noqonuniy abort bilan bir qatorda noqonuniy sterilizatsiya o'tkazish uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan. Shuningdek, xorijiy davlatlar jinoiyat qonunchiligini tahlil qilganimizda, Armaniston va Qozog'iston kabi davlatlar jinoiyat kodekslarida noqonuniy abortni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Ushbu jinoiyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun uning obyektiv tomonini aniqlab olish muhim hisoblanadi.

Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoiyati obyektiv tomondan davolash muassalaridan tashqari joylarda yoki tibbiy nuqtayi nazardan mumkin bo'lmagan holda (shifokor akusher yoki ginekolog tomonidan) yoki har qanday tarzda (shifokor akusher yoki ginekologdan boshqa har qanday shaxs tomonidan) sun'iy ravishda homila tushirish orqali sodir etilishi mumkin.

Bu borada O.S. Kapinus va V.N. Dodonovlarning yozishicha, “noqonuniy homila tushirish (abort) – zarur tibbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan shaxslar tomonidan homilani tibbiy muassasadan tashqarida sun'iy tushirish; homiladorlikni tushirish mumkin bo'lgan muddatga rioya etmaslik; homilani homilador ayolning rozilgisiz tushirishlarni kiritgan”.

“Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoiyatining obyektiv tomoni homilani tushirishga qaratilgan har qanday harakatlarda ifodalanadi. Jinoiyat shaxs tomonidan homilani tushirish (abort)ga qaratilgan harakatlarning boshlanishi bilan bog'liq” [14].

“Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) – formal tarkibli jinoiyat bo'lib, homila ona ba-

chadonidan chiqqan vaqtdan boshlab tamom bo'lgan hisoblanadi.

Unga qadar bo'lgan bosqichda faqatgina jinoiy ravishda homila tushirish (abort)ga suiqasd qilish haqida so'z borishi mumkin.

Basharti, abort jarayonida yorug' dunyoga tirik bola tug'lsa hamda hayotdan mahrum etilsa, qilmish qo'shimcha ravishda qasddan odam o'ldirish bilan ham malakalanishi lozim bo'ladi" [15].

"Sun'iy homila tushirish (abort) huquqiga ega bo'lgan shaxs tomonidan belgilangan qoida va talablarga rioya etish jinoiy javobgarlikni istisno etadi. Basharti, bunday shaxs sun'iy homila tushirish (abort) qoidalarini buzib, homilador ayolning sog'lig'iga zarar yetkazsa yoki o'limiga sabab bo'lsa, uning qilmishi JKning hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlari uchun javobgarlik belgilangan normalari bo'yicha javobgarlikka tortiladi" [12].

"Jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatini malakalashda jinoyat sodir etilgan joy – davolash muassasalaridan tashqari joylar jinoiy javobgarlikka tortishning muhim sharti sifatida nazarda tutilgan"[12].

Xulosalar

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini hamda amaliyot materiallarini tahlil qilish asosida jinoiy ravishda homila tushirish (abort qilish) to'g'risidagi qonunchilikni buzish muammosini har tomonlama tartibga solish va kelgusi faoliyatda bunday xatolarga yo'l qo'yilishining oldini olish uchun Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish va Jinoyat qonunini takomillashtirish bo'yicha shunday xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin bo'ladi:

birinchidan, homila tushirish (abort) ayolning reproduktiv sog'lig'i, tanlovi va huquqi bilan bog'liq masala hisoblanib, reproduktiv salomatlik nasl qoldirish hamda ushbu soha-

da mustaqil qaror qabul qilish huquqini nazarda tutuvchi shaxs sog'lig'ining muhim jihati hisoblanadi;

ikkinchidan, reproduktiv salomatlik insoniyat taraqqiyotining asosi sifatida alohida muhofaza etiladi. Reproductiv salomatlikka tajovuz qilish ikki tomonlama zarar yetkazadi, alohida shaxs sog'lig'iga zarar yetkazish bilan bir qatorda, mamlakatdagi demografik muhitga, ijtimoiy institutlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

uchinchidan, homila tushirish (abort) amaliyoti qonunchilikda taqiqlanmagan, faqat uni amalga oshirishda muayyan talablarga rioya etilishi zarur;

to'rtinchidan, xorijiy davlatlar (jumladan, Ukraina, Moldova, Gruzziya, Ozarbayjon va Turkiya Respublikalari) jinoyat qonunlarida noqonuniy abort bilan bir qatorda noqonuniy sterilizatsiya o'tkazish uchun ham jinoiy javobgarlik mavjudligini inobatga olib, Jinoyat kodeksimizga ham ushbu qoidani kiritish maqsadga muvofiq;

beshinchidan, xorijiy davlatlar (jumladan, Armaniston va Qozog'iston Respublikalari) jinoyat qonunlarida noqonuniy abortni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar mavjudligini inobatga olib, Jinoyat kodeksimizga ham noqonuniy abortni takroran sodir etganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Ushbu ilgari surilgan xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi JK 114-moddasida nazarda tutilgan qilmishlarni amaliyotda to'g'ri kvalifikatsiya qilish imkonini beradi. Yuqorida bildirilgan takliflarning amalga oshirilishi jinoiy ravishda homila tushirish (abort) jinoyatining kelib chiqish sabablarini kamaytiradi va jinoyatchilikning oldini olish imkonini beradi.

REFERENCES

1. Govorova V.D., Yarisheva I.V., Murtuzayeva A.E. Moralnaya otsenka aborta v sovremennykh religiyakh [Moral meaning of abortion in modern religions]. *Questions of Student Science (SKIF)*, 2019, no. 11, pp. 210–224.
2. Kapinus O.S., Dodonov V.N. Sovremennaya ugovovnaya politika v otnoshenii abortov [Modern criminal policy regarding abortion]. *Modern Criminal Law in Russia and Abroad: Some Problems of Responsibility*. Moscow, 2008, p. 244.
3. Dyadyun K.V. Reproduktivnaya sfera kak ob'yekt ugovovno-pravovoy okhrany [Reproductive sphere as an object of criminal legal protection]. *Jurisprudence*, 2014, no. 3/314, pp. 117–118.
4. Kiseleva M.V. Ugolovno-pravovaya okhrana materinstva [Legal protection of maternity]. Moscow, 2010, p. 12.
5. Chekalina A.A., Tomina V.T., Sverchkova V.V. Kommentariy k Ugolovnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Code of the Russian Federation]. Moscow, 2007, p. 254.
6. "Daryo" Internet Publ. Available at: <https://daryo.uz/k/2022/07/31/in-which-region-of-uzbekistan-in-2021-in-2021-the-most-abortion-has-been-performed-malum-boldi-k-2Fk-2Frss>
7. Allanova A.A. Jinoiy ravishda homila tushirganlik (abortion) uchun javobgarlik: qiyosiy-huquqiy tahlil [Liability for criminal abortion a comparative legal analysis]. *Journal of Legal Research*, 2022, no. 1, pp. 64–65.
8. Mal'tseva N.N., Morozova Ye.A., Levchenko V.Ye., Novikov O.O., Krikun Ye.N. Ugolovno-pravovoy aspekt operatsii po iskusstvennomu preryvaniyu beremennosti: vozmozhnyye problemy i puti ikh resheniya [Criminal legal aspect of abortion surgery: possible problems and ways to solve them]. *Modern Problems of Science and Education*, 2016, no. 5, pp. 32–33.
9. Kapinus O.S., Dodonov V.N. Nezakonniy abort i sovremennoye ugovovnoye pravo [Illegal abortion and modern criminal law]. *Law*, 2005, no. 10, p. 92.
10. Mustafayev S.Ye. Ugolovno-nakazuyemoye preryvaniye beremennosti: problemnyye aspekty ugovovnogo zakonodatel'stva [Criminally punishable termination of pregnancy: problematic aspects of criminal legislation]. *Bulletin of Moscow University*, 2015, no. 1, pp. 111–112.
11. Krasikov A.N. Ugolovno-pravovaya okhrana prav i svobod cheloveka v Rossii [Criminal legal protection of human rights and freedoms in Russia]. Saratov, 1996, p. 104.
12. Kiselyova I.A., Bezrukova Ye.N. Nezakonnoye iskusstvennoye preryvaniye beremennosti, problemnyye aspekty [Illegal artificial termination of pregnancy, problematic aspects]. *Privolzhsky Scientific Bulletin*, 2015, no. 12-2/52, pp. 67–68.
13. Kondratenko A.V., Nesterova Ye.A., Novosyolova P.A. Iskusstvennoye preryvaniye beremennosti [Artificial termination of pregnancy]. *Student Scientific and Educational Journal*, 2021, no. 7, p. 933.
14. Romanov A.K. Ob ugovovnoy otvetstvennosti za nezakonnoye proizvodstvo aborta [On criminal liability for illegal abortion]. *Bulletin of the Moscow State Linguistic University*, 2010, no. 23/602, p. 115.
15. Voropayeva I.V., Protasevich A.A., Voropayev A.V., Sergeyeva Ye.K., Isayev YU.S. Ugolovnaya otvetstvennost za nezakonnoye proizvodstvo aborta [Criminal liability for illegal abortion]. *Siberian Medical Journal*, 2006, no. 4, pp. 107–108.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2024-yil 3-son

VOLUME 8 / ISSUE 3 / 2024
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.3.